O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA VA QURILISH INSTITUTI

**"LANDSHAFT DIZAYNI VA INTERYER" KAFEDRASI**

**"INTERYER PERSPEKTIVASI" FANIDAN KURS ISHINI BAJARISH BO'YICHA**

# USLUBIY QO'LLANMA



**5150900 - "Dizayn (turlari bo'yicha)" ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan**

SAMARQAND - 2016

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI

MIRZO ULUG’BEK NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA-QURILISH INSTITUTI

**“LANDSHAFT DIZAYNI VA INTERYER” KAFEDRASI**

Institut **ilmiy-uslubiy kengashi**da ko’rib chiqildi va chop etishga ruxsat berildi.
__ - raqami bilan ro’yxatga olindi.
__ - sonli bayonnoma.
“___” ___________ 2016 y.

“TASDIQLAYMAN”
Institut ilmiy-uslubiy kengashi raisi,
tex.fan.nom., dots. **Quldashev.A.T**.
______________________
“___”________2016 y.

**“INTERYER PERSPEKTIVASI”**
FANIDAN KURS ISHINI BAJARISH BO’YICHA

# USLUBIY QO’LLANMA

**5150900 - “Dizayn (interyer)” ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan**

**SAMARQAND – 2016**

UDK 72.017

Uslubiy qo'lanmada turarjoy va jamoat binolari , ularning interyerlari to'g'risida, interyer perspektivalarini qurish bo'yicha tushunchalar, qisqacha ma'lumotlar berilgan, bino interyeri perspektivasini bosqichma-bosqich shakllantirish bo'yicha misollar keltirilgan. Uslubiy qo'llanmada, shuningdek , interyer perspektivasi kursi bo'yicha bajarilgan kurs ishlaridan namunalar, mavzu bo'yicha test savollari, asosiy atamalar lug'ati berilgan, fan bo'yicha Reyting nazorati mezoni ilova qilingan.

Ushbu uslubiy qo'llanma aslida 5150900 - "Dizayn (interer)" ta'lim yo'nalishi uchun mo'ljallangan bo'lsa-da, undan 5150900 - "Dizayn (landshaft)", 5340100 - "Arxitektura (turlari bo'yicha)" va 5341000-"Qishloq hududlarini arxitekturaviy-loyihaviy tashkil etish " yo'nalishlarining talabalari ham o'zlarining kurs loyihalarini bajarishda foydalanishlari mumkin.

Betlari – 85 ta, chizmalari – 20 ta, bibliografiya – 10 ta, ilovalar – 38+10 ta.

**Tuzuvchilar:**

**JONUZAQOV Abduvali Esirgapovich** –
"Landshaft dizayni va interyer" kafedrasi katta o'qituvchisi;
**DJU'RAYEVA Gulchehra Nurullayevna** –
"Landshaft dizayni va interyer" kafedrasi assistenti.
**NORQULOV Olmos Oltinovich** –
"Landshaft dizayni va interyer" kafedrasi assistenti.

**Taqrizchilar:**

**MUHAMMADIYEV Eson Muxamadiyevich –**
"O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi". "Landshaft dizayni va interyer" kafedrasi professori;
**QULNAZAROV Baxrom –**
"Chizma geometriya va muhandislik grafikasi" kafedrasi dotsenti.

Uslubiy qo'llanma "Landshaft dizayni va interyer" kafedrasi majlisida ( 23 mart 2016 yil, 6-sonli bayonnoma) va Arxitektura fakulteti Ilmiy-uslubiy kengashida ( 25 mart 2016 y. 7-sonli bayonnoma) ko'rib chiqilgan va ma'qullangan.

Chiqish belgilari: SamDAQI. Formati A-4. Buyurtma №____ Adadi: 10 ta.
Hajmi 4,75 b.t.

**MUNDARIJA**

KIRISH. Uslubiy qo'llanmaning maqsad va vazifalari.. ........................................4
**I-qism.** TURARJOY VA JAMOAT BINOLARI TO'G'RISIDA ASOSIY TUSHUNCHALAR. TURARJOY BINOLARI..........................................................5
Turarjoy binolari tasnifi.................................................................................5
Kvartira va uning elementlari.........................................................................6
JAMOAT BINOLARI.........................................................................................8
Jamoat binolari tasnifi.....................................................................................9
**II-qism.** INTERYER TURLARI VA TARKIBI.....................................................9
INTERYERNING FAZOVIYLIGINI IFODALASH..................................11
**III-qism.** PERSPEKTIV PROYEKSILAR CHIZMALARI.......................................15
NTERYER PERSPEKTIVASI...............................................................................18
Kuzatish nuqtasini tanlash...........................................................................22
Interyerning  frontal perspektivasi..................................................................22
Interyerning  burchakli perspektivasi...............................................................26
MEBELNING PERSPEKTIV TASVIRI......................................................................27
INTERYER PERSPEKTIVASI BO'YICHA KURS ISHI TARKIBI, UNI QURISH BOSQICHLARI VA TOPSHIRIQ VARIANTLARI .........................................38
"INTERYER PERSPEKTIVASI" FANIDAN TEST NAZORATI SAVOLLARI............57
ASOSIY ATAMALAR LUG'ATI - GLOSSARIY ...............................................62
TALABALAR TOMONIDAN BAJARILADIGAN TOPSHIRIQLARNING MAZMUNI, HAJMI VA UNGA AJRATILGAN BALLAR TAQSIMOTI .......................................65
ADABIYOTLAR.....................................................................................................66
ILOVALAR...........................................................................................................67

## KIRISH

Interyer bino va inshootlarning ichki ko'rinishi, ichki muhiti bo'lib, insonning hayotiy va ish faoliyati kechadigan asosiy muhit hisoblanadi. Shuning uchun interyerni tashkillashtirish, uni optimal jihozlash nafaqat arxitektorlar, balki dizaynerlar kasbiy faoliyatining asosini tashkil etadi. Intererni naturadagidek tasavvur qilish uchun uning umumiy ko'rinishini, ya'ni perspektivasini qurishni bilish lozim.

Loyihalashning ijodiy jarayonida perspektiv chizmalar va interyer perspektivasi muhim o'rin tutadi. Interyer perspektivasi to'qri qurilgandagina plan, fasad, qirqim kabi ortogonal chizmalarga aniq metrik tasvirlar sifatida kerakli qo'shimcha bo'lib xizmat qila oladi. Maketlar ham binoning ichki muhitini, ya'ni bino ichki hajmi, devorlar, jihozlar fakturasi, ranglarini perspektiv tasvirlardek ko'z oldingizda namoyon eta olmaydi. Katta chizmalarning umumiy ko'rinishini shakllantirishda hatto aksonometrik tasvirlar ham bizga biroz qiyshiq bo'lib ko'rinadi va faqatgina perspektiv proektsiya real tasvirga yaqinlashib, obyekt to'g'risida aniq tasavvur o'yg'ota olishi mumkin.

Turar joy binolari va jamoat binolari interyerlari o'ziga xos jihatlari bilan bir-biridan tubdan farq qiladi. Ya'ni ular kichik (oila) va katta jamoalarga (bir necha o'n yoki yuz kishiga) mo'ljallanganligi uchun ichki o'lchamlari, ko'lami, funktsiyasiga qarab jihozlanishi turlicha bo'ladi. Nisbatan katta va jihozlari ko'p bo'lgan jamoat binolari interyerlari, misol uchun oshxona va restoranlar, faollar zali, teatr, konsert zallari perspektivasini qurish talabadan chuqur bilim, qunt va mehnatni talab qiladi. Shuning uchun dastlab kuichikroq bo'lgan interyerlarning perspektivasini bir necha bor qurib o'rganish talab etiladi.

"Interyer pespektivasi" kursi 5150900 - "Dizayn (interer)" ta'lim yo'nalishining 2-bosqichiga tanlov fani sifatida kiritilgan. Asosan amaliy mashg'ulotlardan tashkil topgan fan bo'yicha birmuncha sodda topshiriqlar va oxirida biron turarjoy yoki jamoat binosining interyerini kurs ishi sifatida bajarish rejalashtirilgan. Bunda ular kelgusida "Loyiqalash" va boshqa fanlar bo'yicha beriladigan loyihalar va topshiriqlarni bajarishda, hamda interyerlar bo'yicha o'z g'oyalarini yaqqol tasavvur qilishda bu fanda olgan bilim va ko'nikmalari qo'l keladi.

### Uslubiy qo'llanmaning maqsad va vazifalari:

Uslubiy qo'llanmadan kuzatilgan maqsad talabalarni interyer loyihalarida duch keladigan quyidagi asosiy masalalarni yechishni o'rgatishga qaratilgan:

- Binolar interyerlari va uning jihozlari tipologiyasi(gabarit o'lchamlari)ni yaxshi bilish;
- Ularning umumiy ko'rinishini perspektivaning biron usulida shakllantirish;
- Qurilgan perspektiv ko'rinishga grafik rang berish orqali uni yaqqol tasvirlash;
- Interyer perspektivasini qurishda masshtab, metr, ritm, kontrast, nyuans, simmetriya, proporsiya kabi kompozitsiya vositalarini va dekorativ elementlar, zamonaviy materiallar koloristikasi, tekstura-fakturasini qo'llay bilish;
- Binolar tashqi arxitekturasining interyer bilan uzviy bog'liqligini his etish va b.lar.

## I-qism
## TURARJOY BINOLARI TO'G'RISIDA ASOSIY TUSHUNCHALAR

TURARJOY BINOLARI

Shahar va qishloq aholisi turli tarkibdagi oilalardan vujudga keladi. Son va yosh bo'yicha tarkibi, a'zolarining ishlab-chiqarishda mashg'ulligi darajasi va ishining xarakteri bilan oilaning yashash tarzi o'zgarib turadi. Har bir oila uchun uning maishiy turmush tarziga, yashash maydoni va yordamchi imoratlarga bo'lgan ehtiyojiga to'la javob bera oladigan yashash joyi ko'zda tutilishi lozim.

Aynan shu ehtiyojlardan kelib chiqib, aniq to'plamga, kvartira tarkibi va maydoni turlicha bo'lgan kvartiralarga ega turarjoy binolarini loyihalash zamon talabi hisoblanadi. Zarur bo'lgan u yoki bu kvartiralar soni, ularning foiz nisbatlari aholining demografik tarkibi, ya'ni yoshi, ishining turi, oilasining tarkibi to'g'risidagi statistik ma'lumotlar va qurilishi mo'ljallangan joy asosida aniqlanadi.

### Turar joy binolarining tasniflanishi

Turarjoy binolari belgilari bo'yicha turlicha bo'ladi. Yashovchilarning joylashuv tamoyiliga binoan uylar ikki guruhga bo'linadi (1-rasm):

- *Kvartirali uylar* – alohida kvartiralarda oilaviy yashashga mo'ljallangan;
- *Alohida xonalar bo'ylab joylashtiriladigan uylar* – asosan yakka yashovchilar uchun mo'ljallangan, umumiy foydalaniladigan madaniy-maishiy xizmat xonalari bo'lgan, ya'ni oshxona, santugun va h.k.lar bilan jihozlangan uylar (talabalar, ishchilar uchun yotoqxonalar, internatlar, xizmat safari bilan kelgan turistlar uchun mehmonxonalar, qariyalar uylari, dam olish uylari va h.k.).

Har ikkala guruhdagi uylar, ularda yashovchilarning ehtiyojlari va uylarning funktsiyalariga qarab, o'ziga xos me'moriy-rejaviy echimlarga ega bo'ladi. Shahar va qishloq turarjoy fondining asosiy qismini kvartirali uylar tashkil qiladi.

Uy yonida yer uchastkalari bor bo'lgan uylar xarakteriga binoan, quyidagi turlarga bo'linadi:

- *Usadba tipidagi uylar*. Bunda uy egasi, uy atrofidagi yer uchastkasiga ega bo'ladi. Bunday uylar bir kvartirali va blok tipida (blokda ikki va undan ko'p kvartira bo'lishi mumkin) bo'lib, har bir kvartiraning alohida yer uchastkasi bo'ladi.
- *Jamoa bo'lib foydalanadigan er uchastkalari bo'lgan uylar*. Bunday uylar asosan ko'p qavatli kommunal uylar bo'lib, asosan shahar joylarida ko'proq quriladi. Bunday tipdagi uylarga shaharlardagi seksiyali uylar ham kiradi.

Qavatliligiga qarab turar joy binolari quyidagilarga bo'linadi:

- *Kamqavatli (1-2 qavat) uylar*, mamlakatimiz aholisining ko'p qismi qishloqlarda yashayotgani uchun, bunday imoratlar o'z qiymatini yo'qotgani yo'q.
- *O'rta qavatli (3-5 qavat) uylar*, umumiy foydalanishga mo'ljallangan zinapoyalari bor, lekin, lifti yo'q bo'lgan uylar. Bunday uylar shahar joylarida ko'p tarqalgan bo'lib, ular qurilishi jihatdan iqtisodiy tejamli, qurilishning etarli darajada tig'izligini ta'minlaydi. Lekin, katta shaharlarda imoratlarning yanada tig'izligiga erishish (yerni tejash) maqsadida o'rta qavatli uylar o'rniga ko'p qavatli uylar qurilmoqda. Meditsina xodimlarining ta'kidlashlaricha, issiq iqlimda lifti yo'q bo'lgan 5 qavatli imoratlar, yoshi ulug' kishilarning salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatar ekan. Shuning uchun, O'zbekistonda o'rta qavatli uylarni 4 qavatdan oshirmagan holda qurish tavsiya qilinmoqda.
- *Ko'p qavatli (6-9 qavat) uylar*da vertikal bog'lanish uchun zinapoyalardan tashqari, liftlar ham mavjud. Uylardan foydalanish va qurilishining iqtisodiy tejamkorligi, o'rta qavatli uylardan ortda qolsa ham aholini zich joylashtirish va

yerni tejash jihatlari qulay bo'lganligi uchun, bunday uylar katta shaharlarda qurilishining istiqboli ko'proqdir.

- *Yuqori qavatli (10 va undan ko'p qavatli) uylar* har bir pod'ezdda zinapoya bilan birgalikda ikkita lift – biri yuk uchun, ikkinchisi yuk va passajirlar uchun mo'ljallangan bo'lishi kerak. Yong'in, yer qimirlashlar va boshqa tabiiy ofatlar vaqtida kishilarni qo'shimcha evakuatsiya qilish uchun, kvartiralar bir-biri bilan yozgi xonalar orqali bog'langan bo'lishi lozim.

O'rta, ko'p va yuqori qavatli uylar rejalanishi bo'yicha uch xil tizimda: *sektsiyali, koridorli* va *galereyali* bo'ladi.




**1-rasm. Turar joy binolarining tasnifi.**

## Kvartira va uning elementlari

Kvartira deb, bir-biri bilan qulay bog'langan yashash va yordamchi xonalardan tashkil topgan va bir oilaning yashashiga mo'ljallangan blokka aytiladi. Kvartira yashash uchun qulay (komfort) va santexnik sharoitlarni ta'minlamog'i lozim. Qulay, yashash va yordamchi xonalarning mavjudligi, xonalarning kengligi (proportsiyaliligi) va kerakli jihozlanganligi bilan hosil qilinadi. Kvartiraning rejalashtirilishida, xonalarning bir-biri bilan yaxshi bog'langanligi va ularning mumkin darajada izolyatsiyasi ta'minlangan bo'lishi kerak.

Kvartiradagi xonalarning soni va o'lchamlari, unda yashovchi oilaning soni va a'zolarining yoshlariga qarab aniqlanadi. Kvartira oluvchilarning kasbi-korlari ham hisobga olinishi kerak (masalan, ilmiy va ijodiy ishlar bilan shug'ullanuvchilar uchun alohida xona (kabinet) ajratilishi lozim. Yashash xonalarining soniga qarab, yordamchi xonalarning o'lcham(maydoni)lari aniqlanadi. Kvartirada tantanali, xo'jalik ishlari va dam olish zonalari mavjud bo'ladi. Tantanali zonada (oshxona, mehmonxona va ish kabineti) mehmon kutish, oila a'zolari bilan birga bo'lish uchun mo'ljallangan bo'lib, kvartiraga kirish joyiga bog'langan bo'lishi kerak. Xo'jalik ishlari zonasi (kuxnya, santugun va

ombor) tantanali zona bilan dam olish zonasi orasida bo'lishi kerak. Dam olish zonasi (yotoqxona, bolalar xonasi) kirish qismidan ancha yiroqda joylashgan bo'lishi kerak.




**2-rasm. Kvartira xonalarining tarkibi.**

Kvartirada bir kishi uchun ajratiladigan **9** m$^2$ dan kam bo'lmagan maydon etarli sanitar-gegienik sharoit yaratadi. Poldan shiftgacha bo'lgan balandlik 2,7 m qilib qabul qilingan. Sanitar-gigienik sharoitni yaxshilash maqsadida, har bir kishiga **12-15** m$^2$ maydon ajratilishi istiqbolda ko'zda tutilgan.

Yashash xonalari, derazalar orqali normal yoritilganlikka (deraza bo'shliqlari hisobida xona polining maydoniga nisbatan 1/8 kattalikda) va tabiiy shamollatishga ega bo'lishi kerak. Kvartiraning tashqi devorlari, uyni qishda sovib ketishdan, yozda isib ketishdan saqlashi va tovush (shovqin) o'tkazmaslik xususiyatlariga ega bo'lmog'i lozim.

Kvartirada qulay sanitar-gigienik sharoit, markaziy isitish tizimi, issiq va sovuq suv ta'minoti, suv oqova tizimi va sun'iy havo almashtirish tizimlari, hamda boshqa qurilmalarni qo'llash orqali optimal (qulay) mikroklimat yaratiladi. Hozirgi zamonda xonalarni konditsionerlash ham ko'zda tutiladi.

Kvartiralar yashash xonalarining soniga qarab, *kamxonali* (bir-ikkita yashash xonasi) *o'rtacha o'lchamdagi* (uch-to'rtta xonali), va *ko'p xonali*(besh-oltita xonali)larga bo'linadi. Yashash xonalarining o'lchamlariga qarab, kichik gabaritli va o'rta gabaritli bo'lishi mumkin. Rejaviy yechimiga qarab, kvartiralar bir va ikki sathli bo'lishi mumkin. Ikki sathli kvartiralarda ichki zinapoyalar ko'zda tutilishi lozim. O'zbekiston sharoitida kvartiralarning hammasi, universal maqsadli yozgi xonalarga ega bo'lishi, ya'ni, ulardan yozgi mavsumda yashash xonasi tsifatida ham faydalaniladi.

## JAMOAT BINOLARI TO'G'RISIDA ASOSIY TUSHUNCHALAR

### Jamoat binolariga bo'lgan talab va ularning tasniflanishi

Mamlakatimiz iqtisodiy quvvatining oshishi, xalqimizning madaniyati va turmush tarzi o'sa borgani sari, ommaviy jamoat binolari qurilishining hajmi ortib boraveradi. Mamlakatimizda har bir imoratning tipologik xarakteri aniq belgilab olingan. Qurilishning hajmi ortib borishi bilan, ularga normativ talablarning oshishi, sifat jihatidan o'zgarishi bilan birga, tub aholining an'analari va madaniy-maishiy sharoitlarini hisobga olishni taqozo qiladi.

Jamoat binolariga madaniy-oqartuv va tarbiyaviy funksiyalarni bajaruvchi muassasalar, maishiy xizmat ko'rsatish muassasalari, sport, tomosha zallari va boshqa ko'plab binolar kiradi. Ular o'zaro faqat funktsiyasi yuzasidangina emas, balki, joylashgan joyi, o'lchami, muhimligi va qanchalik ko'p tarqalganligi bilan ham farqlanadi.

Qurilishi eng ko'p tarqalgan jamoat binolariga bolalar muassasalari (maktabgacha tarbiya), umumta'lim maktablari, litsey, kollejlar, savdo va umumiy ovqatlanish muassasalari, sport inshootlari kiradi. Ularning faoliyat doirasi, shahar mikrorayonlari, qishloq joylarda – tuman makazlari, qo'rg'onlar hisoblanadi. Bunday ommaviy jamoat binolari qurilishi uchun, qurilishni industrlash, zavodda tayyorlanadigan tipik rejaviy-konstruktiv elementlar qo'llash zarurati tug'iladi. Bular hisobga olinadigan bo'lsa, qurilishi ommaviy bo'lgan jamoat binolariga namunaviy (tipovoy) loyihalar ishlab chiqish zamon talabi ekanligi ma'lum bo'ladi.

Loyihalarini individual tarzda bajarish mumkin bo'lgan jamoat binolariga ma'muriy, tomosha, madaniy-oqartuv, sport va boshqa inshootlarning katta hajmdagilari, ya'ni, viloyat markazlari yoki miqyosida xizmat qiladigan noyob bino va inshootlar kiradi.

### Jamoat binolarining tasniflanishi

Jamoat binolari o'zining rejaviy strukturasi, aholi puntida joylashuvi, asosiy xonalar tarkibi, me'moriy kompozitsiyasining mafkuraviy-badiiy ko'rinishi kabi asosiy funktsiyalari bo'yicha tasniflanadi.




**3-rasm. Jamoat binolarining tasnifi.**

## II -qism
## INTEYRER TURLARI VA TARKIBI

Bino ichki fazosi – interyer arxitekturasi uning vazifasi, turi, masshtabi, materiali, konstruktsiyasi va boshqa ko'plab sharoitlarga bog'liq.

Barcha turdagi binolar interyerlari kompozitsiyasida birmuncha umumiy usullar va tamoyillar mavjud, turli binolarni loyihalashda interyer kompozitsiyasi ijodiy amaliyotini kelgusida egallash bilimi yordam beradi.

Binoning ichki xonalari kompozitsiyasi asosiy va bosh masalasini kishilar uchun maksimal qulaylik, binoning ishlatilishida funksional jarayonning maqsadga muvofiqligi tashkil qiladi. Bu bino plani tuzulishi, xonalar gabariti va ularda jihozlarning joylashuvi bilan, xonalarning o'zaro yaxshi bog'lanishi, bino ichida qisqa yo'llar orqali aloqasi bilan, binoda kishilarning engil va aniq orientir olishi imkoniyati bilan va bir qator maxsus san-giienik talablarning bajarilishi (yorug'lik, issiqlik rejimi, ventilyatsiya va b.lar) bilan aniqlanadi.

Bino ichki fazosining kompozitsiyasi shu bilan birgalikda, shunday texnik va iqtisodiy sharoitlar, ya'ni: asil va mustahkam materiallarni qo'llashning zarurligi, devor uchun sodda va kamxarj konstruksiyalar, orayopmalar, proyomlar va binoning boshqa elementlari, barcha maydon va balandliklarining haqiqiy ehtiyoji va b.larga mos kelishi bilan belgilanadi.

Interyerda shuningdek, uning badiiy jihatlari ham katta ahamiyatga ega.
U yoki bu badiiy sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan interyerni qurish shart-sharoiti, ichki imoratlarning fazoviy bo'linishi, zinapoyalar, jihozlar, proyomlar va konstruktiv elementlar binoning ichkiligini tashkil qiluvchi hisoblanadi. Bir butun bino arxitekturasi kabi interyerning badiiy xususiyatlari davrga, ijtimoiy-maishiy tartibga, binoning vazifasiga va uning alohida xonalariga, ularning kompozitsiyadagi ahamiyati, o'lchamlari va jihozlariga bog'liq bo'ladi.

Turarjoylar, jamoat va sanoat binolari zamonaviy interyerlariga bir qator umumiy an'analar xarakterli. Ularni nafaqat qulay, balki yorug', keng va erkin, kishilar harakat qilganda, orayopma va devorlarning yaqinligidan qisilib qolmaydigan, tashqi olamdan ajratib qo'yilmagan, atrof fazoga, yorug'likka, quyoshga va yashil o'simliklarga ochiq bo'lgan muhit yaratishga intilish sifatida ta'riflash mumkin. Bundan zamonaviy sharoitlarda katta yoki kichik xona bo'lishidan qat'iy nazar ko'rsatilgan xususiyatlarga javob bera oladigan ichki xonalar fazoviy strukturalar va fazoviy bog'liqliklariga bir qator umumiy talablar kelib chiqadi.

Interyer kompozitsiyasida uning qismlari va elementlarini ichki imoratlar vazifasi va o'lchamlariga mos to'g'ri talqin qilish muhim ahamiyatga ega. Interyer kompozitsiyasi 3 ta asosiy guruhga bo'linadi:

1. *Asosiy imoratlar*, binoning asosiy funksiyalariga mo'ljallangan. Turarjoylarda – bu yashash xonalari; maktabda – o'quv xonalari; tomosha imoratlarida - tomosha zallari; ishlab-chiqarish binolarida – asosiy sexlar va h.k.lar.
2. *Yordamchi imoratlar*, binoning turli yordamchi funksiyalari uchun mo'ljallangan. Turarjoylarda – bu dahliz, oshxona, santugunlar; jamoat binolarida – vestibyul, garderoblar (echinish xonalari), bufetlar va b.lar; ishlab-chiqarish binolarida – yordamchi sexlar, ma'muriy-maishiy xonalar, omborlar va h.k.lar.
3. *Kommunikatsion imoratlar*, aloqa funksiyasini bajaruvchi va odamlar, yuklar va h.k.larning harakatlanishi uchun mo'ljallangan. Bular koridorlar, galereyalar, turli-tuman o'tishlar, zinapoyalar, liftlar, eskalatorlar va h.k.lar. Misol uchun, maktab binosini kommunikatsiion imoratlarning aniq ajratilishiga misol qilib ko'rsatish mumkin.

4. *Ishlab-chiqarish binolarida* ularning kompozitsion tuzilishi asosan mahsulot tayyorlashning texnologik jarayoni bilan bog'liq. Texnologik jarayon sxemasi ishlab-chiqarish binosi planiga asoslanadi.

Binoning vazifasiga qarab, loyihalash va qurilish tajribasi natijasida shakllangan ma'lum u yoki bu funksiyalarni bajarishga mo'ljallangan imoratlar uyg'unligi mavjud bo'ladi. Imoratlarning bu uyg'unligi yoki, ularni atashlaricha, binoning rejaviy elementlari - *kompozitsion sxemalar* yoki *kompozitsion usullar* deb ataladi. Kompozitsion usullar ko'p hollarda o'ziga xos va binoning vazifasi va funktsiyasiga bog'liq (turarjoy, jamoat va sanoat binolari), ammo, bir qator printsipial umumiy usullar borki, bu turli binolarni loyihalashda qo'llanilishi mumkin.

Quyidagi kompozitsiyalarni misol tariqasida keltiramiz.

1. *Zalli kompozitsiya*, bunda berilgan vazifasi bo'yicha binoning barcha funksiyalari yaxlit imoratga qaratilgan (bozor, yopiq sport sahnasini va b.lar misol bo'lishi mumkin).
2. *Markaziy kompozitsiya*, bunda kichik imoratlar bosh imorat yoniga guruhlanadi (tomosha va ko'rgazma binolari, taraqqiy topgan turarjoy turlari, sanoat binolari misol bo'lishi mumkin).
3. *Anfiladli kompozitsiya*, bunda imoratlar bir qator joylashib, o'tish joylari yoki ochiq proyomlar bilan bir butunlikka bog'langan bo'ladi (muzeylar, univermaglarning ba'zi turlari, davlat muassasalarining namoyish zallari, sanoat binolarining ba'zi turlari va b.lar misol bo'lishi mumkin).
4. *Koridorli kompozitsiya*, bunda imorat bir yoki ikki tomondan kommunikatsion koridor bilan bog'langan bo'ladi (o'quv va ma'muriy binolar, shifoxonalar, sanatoriylar va h.k.lar misol bo'lishi mumkin).
5. *Sektsiyali kompozitsiya*, bunda bino bir-biridan ajratilgan seksiya, deb ataluvchi bir xil rejaviy elementlardan iborat bo'ladi (har bir seksiyasi umumiy zinapoya va bir necha kvartiradan iborat seksiyali turarjoy uylari, omborlar, bir qator universal sanoat binolari).

Ko'rsatib o'tilganlardan tashqari *differensiyali kompozitsiya* ham mavjud, bunda yaxlit funktsional vazifaga ega imorat boshqa inshootlar bilan maxsus o'tish qurilmalari va koridor bilan bog'langan bo'ladi (bir qator davolash va sog'lomlashtirish binolari – shifoxonalar, sanotoriylar, dam olish uylari, shuningdek, Madaniyat saroylari, ko'plab sanoat inshootlari).

Bu barcha kompozitsiyalar qurilish va loyihalash amaliyotida toza holda yoki turli uyg'unliklarda "aralash kompozitsiya"ni tashkil qilgan holda uchraydi.

Ushbu kompozitsion sxemalar hajmiy-fazoviy qurilmalarning gorizontal proektsiyalari, ya'ni doimo bino va inshoootlarning plani hisoblanadi.

Birinchi uchta kompozitsion sxema o'zining vazifasiga ko'ra binoning barcha ichki fazosini qamrab oluvchi bir butun interyerni shakllantirish imkoniyatini yaratadi. Bunda, albatta, har bir bunday sxemalar bo'yicha shakllangan interyer o'zining o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'ladi. Koridorli va seksiyali sxemalarda nisbatan ajratilgan, alohida imorat interyerlari yoki ularning guruhlari vujudga keladi.

## INTERYERNING FAZOVIYLIGINI ANIQLASH

Intererning badiiy nazoratini ifodalashning muhim sharti va vositasi, uning fazoviyligini, birinchi navbatda fazo chuqurligini inteyrer ko'rinishining asosiy yo'nalishlari (asosan chuqurligi, ammo shuningdek, kengligi va balandligi) bo'yicha aniqlash hisoblanadi.

Fazoning chuqurligi(ko'lami)ni qurish va aniqlashning umumiy shartlarini ko'rib chiqamiz.

Eng avvalo fazo chuqurligi intererlarda devor va orayopmalari hisoblanadigan fazoning chegaralari faktik masofasiga va bu masofa nisbatlariga bog'liq bo'ladi. Chuqurlik koordinatasi bo'yicha olingan masofa qachon boshqalaridan ustun va etarlicha katta bo'lsa, anfiladlarda, galereyalar va zallarda o'z o'rniga ega bo'lsa, uzunligi bir muncha kengligini ortda qoldirsa, shunda fazo chuqurligi ko'proq darajada namoyon bo'ladi.

Bino plani kompozitsion strukturasi interyer ko'lamining asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Birinchi navbatda imoratlar anfilad(qator)lari va perspektivasini ochib beruvchi o'zaro perpendikulyar chuqurlikka ega o'q bo'yicha bino interyer kompozitsiyasi rivojlanishining klassik usulini ko'rsatish lozim. Bu nuqtai nazardan Palladio planlari va rus klassitsizmi (XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asr boshi) me'morlari - Bajenov, Kazakov, Kvarengi, Rossi va b.lar planlari ayniqsa xarakterlidir.

Keltirilgan misolda bino plani kompozitsiyasi tartibi o'qlar bo'yicha izchil saqlab qolingan; bunda barcha o'qlar nigohlarni binodan tashqaridagi tabiat ko'rinib turuvchi deraza va eshik proyomlariga olib boradi. Aynan shu sabab, interyer bino atrof muhiti bilan aloqa o'rnatadi. Interyer fazosi nigohon (ko'rish orqali) kengayadi, bunga binoning maydoni yoki hajmini ko'paytirish yo'li bilan emas, aksincha, faqat ma'lum kompozitsion usul yordamida erishiladi.

Simmetriya o'qlar bo'yicha interyerni jiddiy qurish usuli planning erkin kompozitsiyasi usulidan farqli o'laroq, muntazam, deb atalishi mumkin, bunda simmetriyaga erishish maqsadi bus-butun ham, qisman ham ko'zlanmagan. Ammo, bunday erkin, manzarali kompozitsiyada ham interyerning yaxlitligi va fazoviyligi ma'lum yo'nalishlarda chuqurlik yaratish yo'li orqali erishish yo'li bilan, shuningdek, fazoni chegaralanmagan ayrim uchastkalarga bo'lish yo'li bilan ham bir vaqtda bir butunlikni tashkil qilish mumkin.

Keyingi vaqtlarda erkin ochiladigan fazoli shunday planlar kompozitsiyasi usullari jamoat va turarjoy arxitekturasida keng qo'llanilmoqda.

Fazo chuqurligini aniqlash shuningdek, uning qismlarga ajralishiga bog'liq. Boshlang'ich (birinchi plan) va oxirgi (orqadagi plan) chegaralarni aniqlash fazoning chuqurligini yuzaga chiqarish uchun zaruriy sharoit yaratadi[1]. Ushbu usuldan sahnani dekorativ bezashda va rangtasvirda fazo ko'lamini aniqlashda ko'p foydalanadilar. Ammo, fazo chuqurligi birinchi va orqadagi planlar orasidagi ora bo'linishlarning borligi uchun yanada ta'sirchan bo'ladi. Shu tufayli fazo chuqurligining go'yoki sanog'i yaratiladi. Agar ko'lam bo'yicha bo'linishlar soni juda oshib ketsa, unda bu bo'linishlar nigohon chuqurlikka uzoqlashayotgan yuza sifatida idrok qilinadi va bo'linishlar haqiqatda yo'qolib ketadi.

Fazoning chuqurligini aniqlash shuningdek, fazoning chuqurligiga qarab intilayotgan yuzalarning borligi bilan erishiladi. Ularni fazoni kesayotgan sirtlar, deb atash mumkin. Ular chuqurlikka sirt bo'yicha intilayotgan nigohiy harakatga chorlaydi va fazoning chuqurligini ifodalaydigan vosita bo'lib xizmat qiladi. Chuqurlikka qarab intilayotgan chiziqni yaratadigan shunday relyef bilan kesuvchi sirtlarning bo'laklarga ajralishi ko'rsatilgan nigohiy harakat uchun yo'naltiruvchilarni yaratadi. Fazoning chuqurligini namoyon qiladigan bu vosita *kesuvchi usul* deb ataladi.

Fazoning chuqurligini aniqlashga shuningdek, *ustma-ust qo'yish usuli* orqali ham erishish mumkin, bunda old planlar formalari chuqurlik bo'yicha orqa plan formalarini o'zaro namoyon qilgandan ko'ra uni qisman o'zi bilan bekitadi.

1. Fazo chuqurligini ularning kuzatuvchidan uzoqlashgani sari kichrayib boradigan barcha predmetlar perspektiv qisqarishlarni namoyon qiladi. Bu perspetiv qisqarishlar chuqurlikka ketayotgan parallellarni, gorizontal chiziqlarni ufqda uchrashuv nuqtasida uchrashuvchi chiziqlarga aylantiradi, uzoqlashgani sari formalarning balandligi, kengligi

va chuqurligi va intervallarning, rakurs va boshqa chiziqli perspektiva hodisalarining qisqarishiga olib keladi.

Arxitekturaviy inshootlar va ularning interyerlarida vertikal va gorizontal tekisliklar va sodda geometrik sirtlar va hajmlar ustunlik qiladi. Shundan kelib chiqib, barcha ko'rsatilgan chiziqli perspektivaning hodisalari arxitekturaviy perspektivalarda asosan yorqin ifodalanadi.

Ilgari ko'rsatilgan kesish va ustma-ust qo'yish usullarida perspektiv qisqarishlar ham qatnashadi, shuningdek yuqorida ko'rsatilgan kesish va ustma-ust qo'yish usullari arxitekturaviy perspektivada ham mujassamlashadi.

2. Havoyi perspektivada ham fazo chuqurligi namoyon bo'ladi, ayniqsa bu cho'ziq planlarga ega ansambl qurilishlarida kuchliroq seziladi, ammo shuningdek, interyerlarda ham ma'lum tarzda bo'ladi. Havoyi perspektiva bois yaqinda, birinchi planda turadigan formalar ancha tiniq, yaqqol va relyefli idrok qilinadi. Uning yuza fakturasi yaxshi ko'rinadi. Uzoqlashgan sari ularning detallari umumiylashib, yo'qolib boradi, fakturasi ham ko'rinmay qoladi. Hajmiy va relyefli formalar uzoqlashgani sari tekislik va siluet tarzida idrok qilinadi, ranglar munosabatlari kamayadi, ranglarning tonalligi o'zgaradi va ularning to'qligi pasayib boradi. Shunga o'xshash o'zgarishlar nur-soyada ham yuz beradi; uzoqlashgani sari predmetlarning yorug'ligi va soyasi kuchsizlanadi.

[1] Bu hodisa fazoviy masofalar predmetlarning mavjudligini ko'proq sezilarli va tushunarli qilishiga ham bog'liq bo'ladi.



**4-rasm. Fazoning kengligi(glubina)ni perkpektiva usuli bilan aniqlash.**
V. Krinskiy chizmasi bo'yicha.

Arxitekturaviy kompozitsiyada tabiiy ravishda hosil bo'luvchi chiziqli va havoyi perspektiva ko'p qo'llaniladi. Ammo, ba'zan talabga qarab u yoki bu perspektivadan ko'proq foydalaniladi. Chiziqli perspetivani kuchaytirish usuli, ba'zan uzoqlashgan predmetlarni yaqinlashtirish va fazoni transformatsiyalash keltirilgan sxemada aniqlashtiriladi (4-chizma).

Bu erda ikkita ufqqa ega (4-chizma, a) Serlioning[1] arxitekturaviy dekoratsiyasidan fragment, shuningdek, bitta ufq (4-chizma, v, g) chizig'ida ikkita uchrashuv nuqtasi bo'lgan perspektiv qurish ko'rsatilgan.

Perspektivaning kuchaytirilishi teatr arxitekturaviy dekoratsiyasida, shuningdek, arxitekturaviy motivdagi rangtasvir asarlarida keng qo'llaniladi.

3. Interyerning fazoviyligi uni o'rab turgan yuzasiga (sirtiga) ishlov berishga jiddiy yondashuvni talab qiladi. Muntazam relyefli faktura bilan ta'mirlanib turiladigan tashqi fasad devorlari yuzasidan farqli ravishda interyerda tekis va ishlov berilgan yuzalar nisbatan ko'proq qo'llaniladi. Devorlar va plafon(shift)larni ranglash uchun och, zich bo'lmagan va og'ir ranglar; devor uchun shisha keng qo'llaniladi. Bularning barchasi interyerning ko'proq fazoviyligini oshirish va kishilarda engillik taassurotini uyg'otishga xizmat qiladi.

Jamoat va sanoat binolari ulkan interyerlari kompozitsiyasida orayopma formalari katta ahamiyatga ega.

Fazoviy kompozitsiyalarning barcha turlarida, shuningdek, interyerlarda yuqorida ko'rib chiqilgan chuqurlik va fazo chuqurligiga yo'naltirilgan belgilar tufayli vujudga keladigan nigohiy harakat holatlari bilan ko'p to'qnash kelamiz.

Hammasidan ko'proq fazo bilan kesishgan yuzalar orqali chuqurlikka nigohiy intilish (harakat) undaydi. Bu holat simmetriya o'qlariga (yoki tengtarozilik) bog'liq: qaysidir o'qning ustuvorligi ushbu o'q bo'yicha nigohiy yo'nalishni yaratadi.

Planda cho'zilgan tekis orayopmali to'g'riburchakli zal uning geometrik xususiyatlari tufayli, zal bo'ylab bosh o'qqa va shuningdek, yo'naltirilgan nigohiy harakatga ega bo'ladi. Tekis yoki gumbazli orayopmali, kvadrat planli zal chuqurlik o'qi ustunlik qiluvchi simmetriyaga ega emas. U markaziy. Bunda zalda chuqurlikka nigohiy harakat turli va qarama-qarshi tomonlarga yo'naltirilgan va go'yoki o'zaro so'nib boradi. Tabiiyki, bunday zal formasi uning geometrik xususiyatlari tufayli boshqa proporsiyalarga ega imoratlar kompleksida statik (ya'ni, nigohiy harakatni to'xtatuvchi) sifatida qaralishi mumkin. Binoning murakkab formalarida imoratning forma bo'yicha ularning proportsiyasi va dominant o'qining yo'nalishiga bog'liq holda dinamiklik va statiklikning uyg'unligini ko'rishimiz mumkin.

Agar planda cho'zilgan to'g'riburchakli zal kengligi bo'yicha silindr gumbaz bilan yopilsa, unda zalning dominant bo'ylama o'qiga gumbazning ham shunday yo'nalishga ega o'qi qo'shiladi, shuning uchun zal chuqurligiga nigohiy harakat kuchli ifodalangan. Bunday imoratning dinamikasi uning uzunligi va kengligi orasidagi kontrast qancha kuchli bulsa, shuncha ifodali bo'ladi. Kuchli kontrast bo'lganda, zal galereyaga, koridorga aylanadi, forma va dinamika undagi odamlarning asosiy bo'ylama harakatiga mos keladi. Metropolitenning stansiyalari va ravoqli o'tish joylari xuddi shunday tuzilgan.

Interyer nafaqat devor, shift, proyom, arxitekturaviy formalari va ularning bezaklari, balki turli turdagi jihozlar; sanoat binolari interyerlari – mashina va jihozlar joylashuvi; turarjoy va jamoat binolari interyerlarida – mebel, elektr yoritish armaturalari, sanitar-texnik jihozlar, akustik pardoz, maxsus jihozlar, dekorativ matolar yordamida yaratiladi.

[1]Serlio Sebastiano (1475—1554)— italyan arxitektori va arxitektura nazariyotchisi.

## III-qism
## PERSPEKTIV PROEKTSIYALARDA CHIZMALAR

Ortogonal proektsiyalardan farqli ravishda – perspektiva shunday proektsiya turi hisoblanadiki, arxitekturaviy ob'ektni hayotda qanday ko'rgan bo'lsak, uni qog'ozda ushbu proektsiya yordamida shunday ko'rinishda tasvirlash mumkin.

Perspektiva hajmiy formalarni uch o'lchamli qilib, ko'rgazmali tasvirlashga, ularning o'zaro joylashuvi, ichki va tashqi fazoning chuqurligini yuzaga chiqarish, atrof-muhit va manzaraning fazoviy xususiyatlarini namoyon qilishga imkon yaratadi.

Loyihalashning ijodiy jarayonida perspektiva muhim o'rin tutadi, bu jarayonda perspektivani qo'llashning 3 ta asosiy bosqichini ko'rsatish mumkin:

1) *Loyihalashning dastlabki bosqichida* loyihalanayotgan ob'ektning xayoliy kompozitsiyasi qo'lda, xomaki perspektiv nabroskalar orqali bajariladi. Bu nabroskalarda perspektivaning asosiy qonunlari saqlanadi (ko'z bilan chamalab). Perspektiv nabroskalar xomaki nabroskalar bilan parallel ravishda bajarib boriladi, ular loyihalanayotgan ob'ektning xayoliy kompozitsiyasini xomaki shaklda birinchi hajmiy-fazoviy ifodalash hisoblanadi;

2) *Perspektivani qo'llashning ikkinchi bosqichi* berilgan ob'ektning ortogonal proektsiyalardagi qiyofasini yakuniy tanlash bilan bog'liq. Bu bosqichda inshootning ortogonal proektsiyalariga asoslangan birmuncha aniqroq perspektivasini tasvirlash mumkin. Ushbu holatda perspektiv tasvirlash nafaqat inshoot haqida hajmiy-fazoviy tasavvur beradi, balki u inshoot alohida elementlarining bir-biri bilan proportsiyalari va o'zaro nisbatlari to'g'risida ham hukm chiqarishga imkon beradi. Ushbu bosqichda perspektivada aniqlangan kompozitsiya kamchiliklariga bog'liq bo'lgan ortogonal chizmalariga tuzatishlar kiritiladi;

3) *Perspektivani qo'llashning uchinchi bosqichi* ortogonal proektsiyalarda berilgan ob'ekt qiyofasini yaratish bilan bog'liq, bu texnik loyihaga mos keladi. Ushbu bosqichda arxitekturaviy ob'ektning perspektivada tasvirlanishi o'zining yakuniy, grafik jihatdan bezalgan ko'rinishiga ega bo'ladi[1].

